

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Andijon davlat pedagogika instituti  
“Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi “  
1-bosqich talabasi  
Ro‘zimboyeva Maftuna Jo‘rabek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va bola hayotida tarbiya va ta’limning mazmuni, shaxsiy qobiliyatlari haqida ma’lumot keltrilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim – tarbiya, rivojlanish, qobiliyat, harakterlar, yosh davrlari, ilmiy tadqiqotlar.

Maktabgacha yosh davri bolaning hayoti haqidagi ilk tasavvurlarini shakillantiradigan davri hisoblanadi. Bu davrda olingan har qanday bilim bolaning boshqa fanlarni o‘zlashtirishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga katta e’tibor berilmoqda. Kelajak avlodni tarbiyalashni maktabgacha ta’lim yoshdan boshlash kerakligi takidlanmoqda. Shuni ham aytish joizki bola tarbiyasini nafaqat maktabgacha yosh davridan balki, ona qornidan boshlash lozim. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun avallambor ota- onalarning o‘zlari ma’naviyatli bo‘lmog‘i lozim. Bolalarni yosh davrlariga bo‘lishda bir qancha olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. L. S. Vigotskiy, L. I. Bajovich, D. B. Elkonin, A. A. Lyublinskaya, A. V. Petrovskiy, o‘zbek psixolog olimlaridan: M.Sh. Rasulova, R. I. Sunnatova, va boshqa yosh davrlarini turli yosh bosqichlarida yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Endi Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tsak. Bolalarni rivojlanish yosh xususiyatlarini o‘rganishga yosh davrlariga katta e’tibor qaratishimiz lozim. Ular quyidagi guruhlariga bo‘lingan:

2-3 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari: Bu davrda bola o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o‘zgalar tomonida aytilgan so‘zlarni tushunish qobiliyati jadal rivojlangan bo‘lsa, 2-3 yoshga kelib o‘zgalar nutqini farqlash jarayoni boshlanadi, bola musiqaga, badiiy so‘z tasiriga tez beriladi. Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she’rlar, aytish hamda raqsga tushushni o‘rgatish lozim. Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o‘zaro muloqatga kirishish ko‘nikmalari shakillana boshlaydi. Anashu ko‘nikmalarni shakillanishiga va ularni malakalarga aylanishiga yo‘naltirmoq lozim.

3-4 yoshli bolalarni rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar shakillanadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg bo‘yi 90- 95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat o‘rganlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z xatti- harakatlarini idora qilish, hisiyot hamda sensor idrok rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakillanadi. O‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faolyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Yana: Tasviriy faoliyat, qurish-yasash faolyatlari ham shakillanadi. 3 yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi. Faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi.

4-5 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Bola bu yoshga yetgach ,uning jismoniy o‘sishi bir muncha jadallashadi. Bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 smga cha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faolyati takomillashib boradi. Bolalarda qiyoslash ko‘nikmasi shakillanadi. Bu yoshda bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Bola juda serharakat, o‘yinqaroq o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlanish, o‘z vaqtida uxlash, salomatligini muhofaza qilish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

5-6 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘sishini ta’minlashga

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

alohida e’tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo’ladi. 6 yoshga yetganda miya po’stlog’ining asab kataklari rivojlanin og’irligi va tashqi o’rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko’nikmalarini rivojlantirish lozim. Dastlabgi iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

6-7 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining yettinchi yillarida undagi harakatlar ko’lami kengayadi. 6-7 yoshli bolalar o’zini idora qilish va o’z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo’la boshlaydi. Bu yoshdagi o’g’il bolalarda mustaqil faoliyat ko’rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakillanadi. Bu davrda bolaning bo’yi 120 smga yetadi, og’irligi 22-24 kg teng bo’ladi. Bu yoshda bola chiniqadi qiziquvchan bo’ladi, o’z salomatligini nazorat qila oladi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo’lgan ta’lim olishga ya’ni o’qishga bo’lgan ishtiyoqni uygo’tish lozim.

Demak bolalarda maktabgacha yoshda juda ko’p rango-rang qobilyat va xususiyatlar shakillanar ekan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri mahsus va amaliy qobilyatlarning rivojlanishi. Qobilyatning rivojlanishi tashqi va ichki sharoitlarning o’zaro aloqalari orqali belgilanadi. Rubinshteyn aytganidek, qobilyat spiralsimon tarzda rivojlanadi, bir ko’rinishdagi qobilyatlar keyingi rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi, natijada yana ham yuqori darajadagi qobilyatlar rivojlanadi. Masalan: musiqaga, matematikaga, rasm chizishga, qo’shiq kuylashga va shunga o’xshash minglab qobilyatlar rivojlanadi. Demak bu davrda farzandlarimizga juda e’tiborli bo’lib, ularni doimo qo’llab-quvvatlab yaxshi tarafga yo’naltirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi, T- 2022 y.

2. Yo’ldoshev J. “Ta’lim yangilanish yo’lida” T.: O’qituvchi. 2000 yil

3. Qodirova F.R, Toshpo’latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.

4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo’stoni. 2013 y. Darslik.

5. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. O’zPFITI. Uslubiy qo’llanma.

6. Qodirova N.R. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish”. “O’ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Navoiy-2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7342200>